



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 30 - yanvar

68-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Jarqo‘rg‘on tumanida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini
davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5, 36-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, Jarqo‘rg‘on tumani hokimining 2024-yil 18-yanvardagi 01-03/227-son xati hamda Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Termiz Komfort Stroy” mas‘uliyati cheklangan jamiyati rahbari Berdiyev Asomiddin Alijonovichning 2023-yil 7-avgust kuni notarial idora tomonidan tasdiqlangan reyestr 202301602004009-son bilan qayd etilgan rozilik arizasini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Termiz Komfort Stroy” mas‘uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli “Qorayontoq” mahallasi hududidagi jami 0,0375 gektar yer maydoni bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari hisoblanishini inobatga olib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

2. Jarqo‘rg‘on tumani hokimi (E.Avazov) ikki kun muddatda hokimlik zaxirasidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari hisobiga olingan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga buyurtmanoma taqdim etsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov):

Jarqo‘rg‘on tumani hokimligi buyurtmasiga asosan bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirsin;

zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarining tuman hokimligi hisobiga qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlab, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

4. Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov) bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat

ro'yxatidan o'tkazish ishlari tuman mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin.

5. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov) tuman hokimligi zaxirasiga qaytarilgan jami 0,0375 gektar yer maydonini belgilangan tartibda loyiha hujjatlarini tayyorlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida qayta "E-ijro auksion" elektron onlayn-auksion savdosiga qo'yilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e'lon qilinsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyat hokimi



U.B.Qosimov